

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK MASALASI RIVOJLANISH TARIXI

Xolmatova Umida Normaxammad qizi
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
uholmatova58@gmail.com

Mamlakatimizda adolatli huquqiy fuqarolik jamiyati barpo etishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, gender tengligi masalasi davlat siyosatining muhim jihatini tashkil etadi. "Gender" atamasi hozirgi kunga kelib eng dolzarb, dunyo geosiyosiy xaritasida asosiy maydondagi masala o'rnidadir. Gender masalasining bunday keng hududlarda yoyilishi davr talabi, davr markazida turgan inson qadrlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Gender masalasi dastlab "xotin-qizlarga oid masala" sifatida dunyo yuzini ko'rdi.

Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki: "Ayollarning iqtisodiy-siyosiy, kasbiy huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotga ilk bor 1871 - yil 18 - martda Parij Kommunasini tashkil topgan davrda asos solingan edi. Ikkinchi jahon urushi tugagach esa, jahonda birinchi yirik tashkilot - Xalqaro Demokratik Xotin - Qizlar Tashkiloti (XDXQT) tuzildi.¹

Xotin-qizlarga oid siyosat muammosi keng miqyosda 1945-yil BMTning tashkil topishi bilan boshlandi. Tashkilotning dastlabki 51 a'zosidan 30 tasi ayollarga erkaklar bilan tenglikda saylov huquqi va davlat ishlari bilan shug'ullanish huquqini beradi. BMT Nizomida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi e'tirof etiladi.²

1976 - yilda BMT ning xotin - qizlar rivojlanish jamg'armasi (UNIFEM) tashkil etildi. UNIFEM faoliyati xotin - qizlarning ahvolini yaxshilash, gender masalalari bo'yicha yangi dasturlarni moliyaviy va texnik jihatdan qo'llab - quvvatlashga qaratilgan. Bugungi kunga kelib, 100 dan ziyod mamlakatlarda UNIFEM jamg'armalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Yuqorida sanab o'tganimizday BMT Nizomi, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktlar, BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktlarda erkak va ayollar uchun yagona bo'lgan inson huquqlari umumiy konsepsiyasini tashkil etuvchi salkam 70 ta xalqaro hujjatlar qayd etilgan.³

Gender ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va

¹ Shamsiyeva M. Gender tenglik. Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti.2015. N.1 125-b.

² Sultonova A. Yangi O'zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro harakatning tarixiy taraqqiyoti. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. 922-b.

³ Права человека – права женщин в Узбекистане (Пособие для тренеров).-Т., 2002, с. 214.

faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. Gender tenglik masalasi hozirgi davr talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, kecha yoki bugun paydo bo'lgan ijtimoiy masala emas. O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy tamoyillari etib: qonuniylik; demokratizm; xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligi; jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi va ochiqlik etib belgilandi.⁴

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilanoq davlat siyosatining markaziga inson manfaatlarini asos qilib belgilandi. Gender tenglik siyosatini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ayollar, oila, onalik va bolalikni himoya qilishning huquqiy bazasini yaratishga, ikkinchidan ayollarni va oilani davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga, joylarda ularga aniq yordam ko'rsatishga alohida ahamiyat beriladi.

Davlatimizda gender tengligi siyosati huquqiy asoslangan. Avvalambor buning ifodasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-modda "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir", 18-modda "Barcha fuqarolar teng huquq va erkinlikka ega bo'lib jinsi, tili, dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida tengdir", deya belgilangan⁵.

1979-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyani qabul qildi. Bu konvensiya 1981-yil 3-sentabrda xalqaro qonun sifatida tasdiqlandi, dunyoning 189 davlati ratifikatsiya qilgani holatida O'rta Osiyo mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston 1995-yil ushbu konvensiyani ratifikatsiya qildi va uning barcha majburiyatlariga to'laqonli qo'shildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi **birinchi** Prezidentining "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini oshirishga doir chora tadbirlari to'g'risida"gi, "Oilalarga davlat yordamini va ijtimoiy yordamni kuchaytirish tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 1995-yil mart oyida O'zbekiston Respublika birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi⁶ PF-1084-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining "Oila manfaatlarini amalga oshirishni ta'minlash yuzasidan 1998-yilga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida"gi qarori va boshqa qonun hujjatlari bilan himoya qilingan.⁷ 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining 760-I-son "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi⁸ Qonun qabul qilindi. Qonun bo'yicha

⁴ O'zbekiston Respublikasi Qonuni: "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'RBQ 562-son. 02.09.2019

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: 2018-y.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-1084-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/181343>

⁷ Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. F. Ahmedshina. Musatqillik sharoitida O'zbekistonning gender muammolari. - T.: 2007-y. 409-b.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/ru/docs/>

xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar ro'yxati shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁹ farmonini, 2010-yil 30-sentabrdagi PF-4245-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi¹⁰ Farmoni qabul qilindi.

Navbatdagi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabr 562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-son Qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Alohida deb ta'kidlashimiz boisi shundaki, shu qonun bilan gender tenglik siyosati o'z siyosiy tusini mustahkamladi. Endilikda "*xotin-qizlarga oid siyosat*" hamda "*gender tenglik siyosati*" tushunchalari sinonim sifatida qo'llanila boshlandi. Mazkur qonun 7 bob, 32 moddadan iborat. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va kafolatlari to'g'risidagi huquqiy asoslar ushbu qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topgan.

Jumladan, ushbu qonunda «gender» tushunchasiga ilk bor qonuniy ta'rif keltiriladi. Unga ko'ra, «gender - xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir»¹¹ deb aytiladi.

2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi¹² qarori ham gender tenglik siyosatidagi muhim qonun hujjati bo'lib kelmoqda.

Mazkur qaror yuzasidan tadbirkorlik va huquqiy bilimlar yuzasidan bo'layotgan kamchiliklar va ularning yechimlari borasida vazifalar belgilandi. Qo'shimcha choralar ko'rish va ularni amalda ijrosi ta'minlanishi maqsadida 16 kishilik komissiya tashkil etildi. Komissiya raisi etib O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi T.K. Narbayeva, komissiya raisi o'rinbosarlari etib O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari - O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi raisi E.I. Basitxanova va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi direktori

10550

⁹ O'zbekistonning Prezidenti 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3434-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-214651>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 4245-sonli farmoni Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-1687443>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ 562-son. 02.09.2019. <https://lex.uz/docs/-4494849>.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Qarori "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4235 sonli. 07.03 2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>

D.G. Tashmuxeammedovalar tayinlandi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yildagi O'RQ-56-sonli "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"¹³gi navbatdagi qonun hujjati muhim hisoblanadi. Mazkur qonuning qabul qilinishi zaruriy ehtiyojlar asosida hisoblanadi. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" degan naql bor xalqimizda, shunday ekan barcha oilalarda yoki jamiyatimizda ijtimoiy, huquqiy yoki siyosiy jihatlarida ham ayrim zo'ravonliklar, turli xil tazyiqlar uchraydi. Bu ko'ngilsiz holatlar yuzasidan, ularni huquqiy javobgarlikka tortish maqsadida mazkur qonun ishlab chiqildi.

Gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yilda "Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasini tashkil etish to'grisida"gi KQ-311/ I-IV-sonli¹⁴ qarori qabul qilindi. Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlari himoyasiga qaratilgan 20 ga yaqin meyoriy-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori, 4 ta Prezident Farmoni, 13 ta Vazirlar Mahkamasi Qarorlari qabul qilindi.¹⁵ Xalqaro maydondagi gender siyosati yuzasidan qabul qilingan hujjatlar o'z nabatida ratifikatsiya qilindi, qonunlarimiz ularga moslashtirildi.

Yetarli darajada, xotin-qizlar masalasiga oid barcha jabhalarni qamrab olgan yaxlit bir qonun va qarorlar majmuasi tashkil etildi. Qonunlarning qog'ozda qolib ketmasligini ta'minlash, hamda ularning ijrosini yo'lga qo'yish ishlari bosqichma-bosqich amlaga oshirilishi navbatdagi qadam bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: 2018-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'RQ 562-son. 02.09.2019
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4494709>
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4494709>

¹³ O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4494709>.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori. "Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etish to'grisida" <https://lex.uz/en/docs/-5949556>

¹⁵ O'zbekiston qonunchiligida gender tengligi va xotin qizlar huquqlari kafolatlari.- Toshkent: Zamin nashr. 2020. 96-b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-1084-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/181343>

6. O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-10550>

7. O'zbekistonning Prezidenti 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3434-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-214651>

8. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 4245-sonli farmoni «Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». <https://lex.uz/ru/docs/-1687443>

9. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ 562-son. 02.09.2019.<https://lex.uz/docs/-4494849>

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Qarori "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4235 sonli. 07.03 2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>

11. Sultonova A. Yangi O'zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro harakatning tarixiy taraqqiyoti. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari.

12. Shamsiyeva M. Gender tenglik. Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti.2015. N.1

13. Права человека – права женщин в Узбекистане (Пособие для тренеров).- Т., 2002.

14. O'zbekiston qonunchiligida gender tengligi va xotin qizlar huquqlari kafolatlari.- Toshkent: Zamin nashr. 2020-y.